


# BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

4

22 012



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 407



Oilaviy korxonona

118



Unitar korxonona

3 806



Xususiy korxonona

38



Aksiyadorlik jamiyat


166



Boshqa korxonalar


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)




Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **2,2** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish  
O‘rmon xo‘jaligi  
Baliq xo‘jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,8** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



**158**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**4 712**

Ishlab chiqarish sanoati

**19**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**105**


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 4 994 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,8 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 100,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,4%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 112,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,2 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 95,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 115,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %) o'sishidir.




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,1** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**1,1** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**3,5** foizga oshdi




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar






# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

784



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

22



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

13



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



411

yashash bo'yicha xizmatlar



2 091

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2 502 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 103,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,6 %), yashash bo'yicha xizmatlarning-107,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,4 %) o'sishidir.



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)






Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 3 774 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 314 taga yoki 107,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 407 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 180 taga yoki 105,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 350 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 332 taga yoki 48,7 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 385 tani tashkil etib, ulardan 378 tasi yoki 98,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 56 taga yoki 117,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar- sentabr oylarida viloyatimizda 35 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- sentabr oylarida, birlikda)



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

14



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Jami</b>	<b>138</b>	<b>251</b>	<b>285</b>	<b>324</b>	<b>378</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	6	19	21	30	33
<b>Sanoat</b>	76	110	122	130	141
<b>Qurilish</b>	7	25	28	32	31
<b>Savdo</b>	21	52	60	72	102
<b>Tashish va saqlash</b>	1	5	6	5	8
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	11	18	21	23	26
<b>Axborot va aloqa</b>	-	1	1	1	5
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	2	4	5	7	7
<b>Boshqa turlar</b>	14	17	21	22	25

# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

15

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>378</b>	<b>212</b>	<b>165</b>
<b>Buxoro shahar</b>	198	96	102
<b>Kogon shahar</b>	16	13	3
<i>tumanlar:</i>			
<b>Olot</b>	8	2	6
<b>Buxoro</b>	27	21	7
<b>Vobkent</b>	5	4	1
<b>G'ijduvon</b>	14	9	5
<b>Kogon</b>	29	20	9
<b>Qorako'l</b>	11	8	3
<b>Qorovulbozor</b>	11	5	6
<b>Peshku</b>	21	9	12
<b>Romitan</b>	15	10	5
<b>Jondor</b>	12	9	3
<b>Shofirkon</b>	10	7	3

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 198 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 52,4 %), Kogon tumani 29 ta (7,7 %), Peshku tumani 21 tani (5,6 %), Kogon shahar 16 ta (4,2 %), Buxoro tumani 28 ta (7,4 %), hamda Jondor tumanlarida 12 tani (3,2 %) tashkil etadi.

## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)




2018-2022- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investisiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.



# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar jami 35359 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (27,6 %), G'ijduvon (10,9 %), Romitan (8,4 %), Buxoro (7,6 %), Jondor (6,8 %), Peshku (5,9 %), Shofirkon (6,0 %), Kogon (5,5 %), Qorako'l (5,7 %), Vobkent (5,4 %), Kogon shahar (4,2 %), Olot (3,7 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar- sentabr oylarida, birlikda)

2022- yilning yanvar- sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar jami 3 525 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (24,1 %), G'ijduvon (10,5 %), Buxoro (8,6 %), Romitan (9,2 %), Peshku (4,3 %), Kogon (8,2 %), Jondor (8,2 %), Vobkent (6,0 %), Shofirkon (5,9 %), Qorako'l (5,5 %), Olot (3,7 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumanlari va Kogon shahar (3,5 %), ulushiga tegishli.



# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni



(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar jami 29 399 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (28,4 %), G'ijduvon (10,6 %), Romitan (8,7 %), Buxoro (7,8 %), Jondor (7,1 %), Peshku (5,8 %), Shofirkon (5,7 %), Kogon (5,8 %), Vobkent (5,4 %), Qorako'l (5,1 %), Kogon shahar (4,1 %), Olot (3,2 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022-yilning yanvar- sentabr oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Buxoro viloyati**

**Statistik registrnlarni yuritish bo'limi**

**Tel.: (65) 223-83-20**